TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLILY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING G‘AZNA IJROSIDA BIG DATA TAHLILIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI.....	1535
Atajanov Murodbek Bekberganovich	
РОЛЬ И РАЗВИТИЕ КИБЕРПРАВА В ФИНТЕХ-ПРОЕКТАХ: ПРАВОВЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРИОРИТЕТЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	1539
Мирзаев Шерзод Махматкулович	
KAMBAG‘ALLIK VA UNI TADRIJIY-NAZARIY KONSEPSIYALARI.....	1547
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
DAVLAT KORXONALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA QIYMATNI ANIQLASH VA MOLYAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASH MEXANIZMLARI	1554
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA HUDUDLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA MOLYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1560
Dovutov Faxriddin Javlijevich	
KICHIK KVADRATLAR METODIGA ALTERNATIV YANGI DIFFERENSIAL USULINI ISHLAB CHIQISH VA UNING SAMARADORLIGI	1567
Ochilov Sherali Baratovich, Akramova Obida Qosimovna, Raximova Dilnoza Davronovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MUHITGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1581
Ibragimova Ma‘mura Muxiddinovna	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA «YASHIL LOYIHALAR»NI INVESTITSİYALASH IMKONIYATLARI.....	1585
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE AS OBJECT OF RESEARCH AND EVALUATION	1589
Ismailova Makhbuba Mirkhalilovna	
MAGNEZIAL BOG‘LOVCHI VA BAZALT TOLASI CHIQINDISI ASOSIDA KOMPOZITSION MATERIALLAR OLISH	1594
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o‘g‘li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
YASHIL INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI: LCOE, CBA VA SDGS INDIKATORLARI ASOSIDA TAHLIL	1598
Kilicheva Kamola Muzaffarovna	
RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI	1603
Janzakov Bekzot Kulmamat o‘g‘li	



RESPUBLIKADA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MASALALARI

Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li

“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitet dotsenti, PhD.

b.janzakov@univ-silkroad.uz

<https://orcid.org/0000-0002-7069-5309>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy turizm bozori miqyosida kiruvchi o'zgaruvchilar: xonalar soni, xizmat ko'rsatuvchilar soni va turistik transport vositalari soni asosida turistik xizmatlar eksporti natijaviy o'zgaruvchi sifatida 2016-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda texnik samaradorlik ko'rsatkichlari staxastik chegaraviy tahlil usuli asosida hisoblandi va shu asosda samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Stoxastik chegaraviy tahlil, kiruvchi o'zgaruvchi, chiquvchi o'zgaruvchi, turizm bozori, texnik samaradorlik.

Abstract. This article calculates technical efficiency indicators based on the stochastic frontier analysis method for the period from 2016 to 2024 based on the input variables of the national tourism market of the Republic of Uzbekistan: the number of rooms, the number of service providers and the number of tourist vehicles, and the output variable is the export of tourism services. On this basis, scientific recommendations for improving efficiency are developed.

Key words: stochastic frontier analysis, input variable, output variable, tourism market, technical efficiency.

Аннотация. В данной статье рассчитаны показатели технической эффективности на основе метода стохастического граничного анализа за период с 2016 по 2024 год на основе входных переменных национального туристского рынка Республики Узбекистан: номерного фонда, количества поставщиков услуг и количества туристских транспортных средств, а выходной переменной является экспорт туристских услуг, и на этой основе разработаны научные рекомендации по повышению эффективности.

Ключевые слова: стохастический граничный анализ, входная переменная, выходная переменная, туристический рынок, техническая эффективность.

KIRISH

Jahonda turistlar oqimini muayyan mamlakatlarga yo'naltirish, ularga sifatli turistik xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida yuzaga kelayotgan qator muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy yechim topish yuzasidan maqsadli izlanishlar olib borilmoqda. Jahonda koronavirus pandemiyasi sababli xalqaro turizm da keskin o'zgarishlar kuzatildi. Jumladan, "... jahon turizm sohasi tahlili natijalaridan ma'lum bo'ladiki, xalqaro turistik oqim 1 mlrd. kishiga va turizm eksporti 1 trln. AQSh dollariga, jahon YaIM hajmi 2 trln. AQSh dollar miqdoriga kamaygan"¹.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda "turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash..."², zarurligi, shuningdek "turizmni rivojlantirish bo'yicha ham izchil islohotlarni..."³ uzluksiz davom ettirgan holda "...ziyosat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi"⁴, — degan vazifalaridan kelib chiqib, tashrif buyurayotgan sayyohlar didi va talablariga javob beradigan yuqori sifatli turistik xizmatlar ko'rsatish tarmog'ining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. Respublikamizda mazkur masalalarga doir keng ko'lamli chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish o'ta muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy samaradorlik an'anaviy ravishda haqiqiy ishlab chiqarish hajmining potensial ishlab chiqarish hajmiga nisbatida ifodalanadi. Bu cheklangan resurslarning tovar va xizmatlarga qay darajada samarali

¹<https://www.unwto.org/impact-assessment-of-the-covid-19-outbreak-on-international-tourism>

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 сонли "2017 -2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси". Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 6-сон 70-модда.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29 декабрь 2020 йил / Халқ сўзи. 2020 йил 30 декабрь.

⁴Ўша жойда



aylantirilayotganini bildiradi⁵. Koopmans⁶ (1951) va Farrell⁷ (1957) tomonidan berilgan asosiy hissa samaradorlikni tahlil qilish uchun matematik asoslar yaratishga bag'ishlangan bo'lib, qaror qabul qiluvchi birliklar (DMU) faoliyatini solishtirishda chegara (frontier) baholash yondashuviga urg'u qaratilgan. Ushbu paradigmadagi ikki asosiy metodologiya shakllangan: Ma'lumotlarni qamrab olish tahlili va Stoxastik chegara tahlili. Ushbu yondashuvlar samaradorlik tadqiqotlarida dinamik modellashtirish asosini tashkil etadi⁸.

Mamlakat ishlab chiqarish ko'rsatkichi umumiy omillar samaradorligidagi vaqt bo'yicha o'zgarishlarni baholashda keng qo'llaniladi⁹. U faoliyatdagi o'zgarishlarni samaradorlik o'zgarishi va texnologik o'zgarish kabi tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qiladi. Luenberger indikatori esa manfiy yoki salbiy natijabiy mahsulotlarni ham hisobga olish imkonini beradi, bu esa uni ekologik samaradorlikni baholashda ayniqsa dolzarb qiladi¹⁰.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kapelko va boshqalar¹¹ (2023) ko'p yo'nalishli dinamik samarasizlik tahlili (Multidirectional Dynamic Inefficiency Analysis – MEA) modelini ishlab chiqdilar. Bu model MQT asosida qurilgan bo'lib, vaqt davomida korxona darajasidagi faoliyatni baholash uchun korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini integratsiya qiladi. Ushbu yondashuv dinamik past samaradorlikning asosiy omili sifatida investitsion samarasizlikni ta'kidlaydi va iqtisodiy bo'lmagan maqsadlarning ortib borayotgan ahamiyatini aks ettiradi.

Jradi va Ruggiero (2023) MQT modeliga stoxastik elementlarni kiritib, o'lchashdagi xatoliklar va tasodifiy shovqinlarni hisobga oldilar. Ushbu yondashuv samaradorlikni ehtimollik asosida baholash imkonini beradi va ko'pincha uzun muddatli (longitudinal) ma'lumotlar to'plamlariga xos bo'lgan to'liq bo'lmagan ma'lumotlar sharoitida ishonchlilikni oshiradi¹².

SCHT (Stoxastik chegara tahlili) samaradorlik chegarasini tahlil qilishni kengaytirib, samarasizlikni stokastik xato elementi sifatida modellashtiradi va shovqinni samarasizlikdan ajratib ko'rsatadi¹³. So'nggi yutuqlar qatorida meta-chegaralarni baholashga imkon beruvchi iyerarxik panel ma'lumotlar asosidagi SHT modellari mavjud bo'lib, ular guruh darajasidagi texnologiyalarni solishtiradi, texnologik tafovutlar va sohaviy heterogenlikni aniqlaydi¹⁴.

Parmeter va Kumbhakar¹⁵ (2023) parametrik taxminlarni yumshatish uchun yadroviy tekislash usulidan foydalangan holda noparametrik va yarim parametrik SHT texnikalarini taklif qildilar. Bu yondashuv dinamik muhitlarda moslashuvchanlikni oshiradi. Stead va hammualliflar¹⁶ (2023) og'ir dumli xato taqsimotlarini kiritish orqali robust SHT (ishonchli stoxastik chegara tahlili) usulini rivojlantirdilar, bu esa chiqarib tashlanadigan nuqtalarga nisbatan bardoshlilikni oshiradi.

Macedo va hammualliflar¹⁷ (2023) Maksimal Entropiyaga asoslangan SHT usulini taklif qildilar. Ushbu yondashuv kichik hajmdagi tanlanmalar muammosini hal qilish va ekologik samaradorlikni baholashni yaxshilash uchun entropiyaga asoslangan baholashdan foydalanadi hamda dinamik qo'llanmalarda barqaror statistik xususiyatlarni ta'minlaydi.

5 Debreu, G. (1983a). *Mathematical economics: Twenty papers of Gerard Debreu*. Cambridge University Press.

6 Koopmans, T. C. (1951). *Activity analysis of production and allocation*. Wiley.

7 Farrell, M. J. (1957). The measurement of productive efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General)*, 120(3), 253–290.

8 Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.

9 Caves, D. W., Christensen, L. R., & Diewert, W. E. (1982). The economic theory of index numbers and the measurement of input, output, and productivity. *Econometrica*, 50(6), 1393–1414.

10 Chambers, R. G., Chung, Y., & Färe, R. (1996). Benefit and distance functions. *Journal of Economic Theory*, 70(2), 407–419.

11 Kapelko, M., Oude Lansink, A., & Stefanou, S. E. (2023). Multidirectional dynamic inefficiency analysis: An extension to include corporate social responsibility. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 113–130). Springer.

12 Jradi, S., & Ruggiero, J. (2023). Stochastic MQT. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 131–142). Springer.

13 Aigner, D., Lovell, C. A. K., & Schmidt, P. (1977). Formulation and estimation of stochastic frontier production function models. *Journal of Econometrics*, 6(1), 21–37.

14 Amsler, C., Chen, Y. Y., Schmidt, P., & Wang, H. J. (2023). A hierarchical panel data model for the estimation of stochastic metafrontiers: Computational issues and an empirical application. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 183–196). Springer.

15 Parmeter, C. F., & Kumbhakar, S. C. (2023). Recent advances in the construction of nonparametric stochastic frontier models. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 165–182). Springer.

16 Stead, A. D., Wheat, P., & Greene, W. H. (2023). Robustness in stochastic frontier analysis. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 197–228). Springer.

17 Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.



Bosetti va hammualliflar¹⁸ (2007) turizmni boshqarishda MQT orqali taqqoslash (benchmarking) yondashuvining ahamiyatini ta'kidlab, resurslarni taqsimlashdagi hududiy farqlarni baholashda uning foydasini namoyish etdilar.

1-jadval. MQT va SHT usullarining qiyosiy jadvali

Xususiyat	MQT	SHT
Farazlar	Noparametrik, qism chiziqli chegara (piecewise linear frontier)	Parametrik, ma'lum funksional shaklni belgilashni talab qiladi
Shovqin (xatolik) bilan ishlash	Deterministik samaradorlikni faraz qiladi, ya'ni shovqinni hisobga olmaydi	Samarasizlikni tasodifiy shovqindan ajratadi
Dinamik kengaytmalar	Malmkvist indeksi, Luenberger ko'rsatkichi, Stoxastik MQ, Ko'p yo'nalishli dinamik tahlil	Panel ma'lumotlarga asoslangan SHT, meta-chegaralar, maksimal entropiya modellari
Eng to'g'ri qo'llanish sohasi	Taqqoslash (benchmarking), bir nechta kirish va chiqish ko'rsatkichlari bilan ishlash	Gipotezani tekshirish, noaniqlik sharoitida xulosa chiqarish

MQT va SHT usullarining bir-birini to'ldirishi tobora ko'proq e'tirof etilmoqda, siyosatni baholashda gibridd modellardan foydalanish esa kengayib bormoqda.

Iqtisodiy samaradorlikni o'lchash uchun qo'llaniladigan dinamik modellar sezilarli darajada rivojlandi: statik samaradorlik chegaralaridan vaqt bo'yicha o'zgarishlar, noaniqlik va barqarorlik o'lchovlarini hisobga oluvchi mukammal MQT va SHT yondashuvlarigacha. Ushbu modellar ishlab chiqarish samaradorligini baholash, investitsiyalarni yo'naltirish hamda iqtisodiy natijalarni ekologik va ijtimoiy omillar bilan muvozanatlash uchun mustahkam tahliliy asos yaratadi. Turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida, o'ziga xoslik va dinamiklik yuqori bo'lgan sharoitda, ushbu vositalar dalillarga asoslangan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda ajralmas ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fikrimizcha, tahlil qilinayotgan dinamik modelning matematik ko'rinishi quyidagicha:

$$\ln(Y_t) = \beta_0 + \sum_{j=1}^k \beta_j \ln(X_{jt}) + \beta_{k+1}t + v_t - u_t$$

Bu yerda:

$Y_t - t$ yildagi natijaviy ko'rsatkich (turizm eksporti, ming AQSH dollarida)

$X_{jt} - t$ yildagi kiruvchi o'zgaruvchilar (xonalar soni, transport sig'imi, korxonalar soni va boshqalar)

t — texnologik va tarkibiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi vaqt trendi

β_0, β_j — baholanadigan parametrlar

v_t — o'lchov xatoligi va boshqa xatoliklarni birlashtiruvchi miqdor

u_t — samarasizlikni ifodalovchi miqdor.

v_t ning modelga kiritilishi modelga ishlab chiqarish chegarasidan turli xatoliklar tufayli chetlanganligini tushuntirishga imkon beradi. u_t esa maksimal ishlab chiqarish hajmiga erisholmaslikda samarasizlikni o'lchash imkonini beradi. Bunda har ikkala miqdor normal taqsimlangan deb qabul qilinadi va ularni baholashda amalda standard chetlanishlari nisbatlari qo'llaniladi.

Masalan, $\lambda = \frac{\sigma_u}{\sigma_v}$ samarasizlik dispersiyasining shovqin dispersiyasiga nisbati. λ katta bo'lsa, demak,

modeldagi asosiy tafovutlar samarasizlik tufayli yuzaga kelgan. Yana bir ko'rsatkich $\gamma = \frac{\sigma_u^2}{\sigma_u^2 + \sigma_v^2}$ umumiy tafovutning (dispersiyaning) qanchasi samarasizlikka to'g'ri kelishini bildiradi. $\gamma \approx 1$ bo'lsa, demak deyarli barcha

18 Bosetti, V., Cassinelli, M., & Lanza, A. (2007). Benchmarking in tourism destinations; Keeping in mind the sustainable paradigm. In A. Matias, P. Nijkamp, & P. Neto (Eds.), *Advances in modern tourism research: Economic perspectives* (pp. 165–179). Springer



og'ishlar samarasizlik bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

Yuqorida keltirilgan $\beta_0, \beta_1, \sigma_u, \sigma_v$ parametrlarni maksimal ehtimollik usulida baholadik. Maksimal ehtimollik usulida har bir kuzatuv alohida ehtimollik funksiyasiga ega:

$$\ln L_t = \ln \left(\frac{2}{\sigma} \right) - \frac{1}{2} \left(\frac{\epsilon_t^2}{\sigma^2} \right) + \ln \left[\Phi \left(-\lambda \frac{\epsilon_t}{\sigma} \right) \right]$$

$$\sigma^2 = \sigma_u^2 + \sigma_v^2, \quad \epsilon_t = y_t - X_t \beta$$

Umumiy ehtimollik funksiyasi esa barcha yillar bo'yicha yig'indidan iborat:

$$f(\beta, \sigma_u^2, \sigma_v^2) = \sum_{t=1}^T \ln L_t$$

Parametrlar aniqlangach, har bir yil uchun shartli samarasizlik o'rtachasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$E[u_t | \epsilon_t] = \mu_t + \sigma_t \frac{\varphi \left(\frac{\mu_t}{\sigma_t} \right)}{1 - \Phi \left(\frac{\mu_t}{\sigma_t} \right)}$$

$$\mu_t = -\epsilon_t \cdot \frac{\sigma_u^2}{\sigma_v^2}, \quad \sigma_t = \frac{\sigma_u \sigma_v}{\sigma}$$

Bu yerda

t yildagi texnik samaradorlik esa o'z navbatida o'rtacha samarasizlik eksponentasi sifatida olinadi:

$$TE_t = e^{-E[u_t | \epsilon_t]}$$

Bu ifoda korxona yoki sektorning samaradorlik darajasini 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda o'lchaydi:

$$TE = 1$$

$$TE < 1$$

bo'lsa, korxona eng yuqori samaradorlikda, ishlayotganini bildiradi.

bo'lsa, u ishlab chiqarish chegarasidan pastda

Tahlil va natijalar

Mazkur model O'zbekiston turizm sektorida vaqt o'tishi bilan samaradorlik darajasining o'zgarishini o'lchashga, har bir kiruvchi omilning (infratuzilma, xizmat ko'rsatuvchilar, transport) eksport hajmiga ta'sirini baholashga va ishlab chiqarish chegarasiga nisbatan haqiqiy natijalar qanchalik yaqinligini aniqlashga imkon beradi.

2-jadval. Maksimal ehtimollik baholari

Parametr	Baho	Standard xatolik	z	p-qiyamat
Intercept	-1.45	0.99	-1.458	0.1447
ln(xonalar)	1.011	0.71	1.415	0.157
ln(xiz_korx)	1.075	0.86	1.251	0.211
ln(transport)	-0.37	0.88	-0.424	0.6714
Trend	-0.195	0.19	-1.012	0.3117
$\log(\sigma_u^2)$	-0.72	1.00	-0.72	0.4717
$\log(\sigma_v^2)$	-20.42	1.0	-20.423	0.0

3-jadval. Dispersiya komponentlari va diagnostikasi

Statistika	qiymat
σ_u^2	0.486
σ_v^2	0.0
σ	0.69



$\lambda = \frac{\sigma_u}{\sigma_v}$	18994.35
$\gamma = \frac{\sigma_u^2}{\sigma_u^2 + \sigma_v^2}$	1.0
Logarifmik ehtimollik	-3.32
AIC	20.65
BIC	22.03
N (yillar)	9
K (parametrlar)	7

Dispersiya parametrlariga ko'ra, samarasizlik tasodifiy shovqindan ustun turadi. Samaradorliksizlik dispersiyasi ($\sigma_u^2 = 0,49$) statistik shovqin dispersiyasidan ($\sigma_v^2 \approx 0$) ancha katta bo'lib, $\lambda \approx 18\,994$ va $\gamma \approx 1,0$ qiymatlariga ega. Bu chegara chizig'idan chetlanishlarning deyarli barchasi tasodifiy tebranishlardan emas, balki samarasizlikdan kelib chiqishini anglatadi. Log-ehtimollik (-3,32), AIC (20,65) va BIC (22,03) kabi ko'rsatkichlar bunday kichik tanlama uchun modelning maqbul moslashganini tasdiqlaydi.


Parametrlar baholari shuni ko'rsatadiki, ham mehmonxona quvvatlari, ham turizm xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar soni turizm daromadining kuchli bashoratchilari hisoblanadi. Xonalar elastikligi (1.01) mehmonxona xonalari soni 1% ga oshganda turizm eksporti taxminan 1% ga oshishini ko'rsatadi, xizmat ko'rsatuvchilar elastikligi esa shunga yaqin (1.08) bo'lib, rivojlangan xizmat ko'rsatish sektorining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Transport koeffitsienti manfiy (-0.37), biroq statistik ahamiyatga ega emas, bu esa multikolinearlik va kichik tanlama hajmi bilan izohlanadi; bu natija transport sifati yoki qulayligi kabi omillarni oddiy transport vositalari soni bilan o'lchash mumkin emasligini ko'rsatadi. Vaqt trendi koeffitsienti (-0.20) esa kiritilgan resurslarni hisobga olgan holda chegara o'sishi sust yoki manfiy bo'lganini, COVID-19 pandemiyasi kabi buzilishlar ta'sirini aks ettiradi.

Hech bir koeffitsiyent an'anaviy darajada statistik ahamiyatga ega emas ($p > 0.1$), ammo bu atigi to'qqizta kuzatuv mavjudligi tufayli kutilgan holatdir. Shunga qaramay, koeffitsiyentlarning miqdorlari kirish-chiqish o'rtasidagi bog'liqliklar haqida muhim tushunchalar beradi.

4-jadval. Texnik samaradorlik yillar bo'yicha

Yillar	Texnik samaradorlik (TE)	Baholangan samarasizlik	Real eksport miqdori (ming AQSH dollar)	Mumkin bo'lgan maksimal eksport (ming AQSH dollar)	Qoldiqlar logarifmi
2016	0.9951	0.0049	430746.18	432883.27	-0.0049
2017	0.9781	0.0221	531022.41	542889.96	-0.0221
2018	0.9681	0.0324	1041088.6	1075400.84	-0.0324
2019	0.9997	0.0003	1313032.3	1313224.37	-0.0001
2020	0.2513	1.3811	260987.39	1038537.42	-1.3811
2021	0.2152	1.5363	422069.7	1961559.0	-1.5363
2022	0.7407	0.3002	1610099.72	2173757.93	-0.3002
2023	0.9997	0.0003	2143519.89	2143837.0	-0.0001
2024	0.7962	0.2279	3100184.09	3893675.04	-0.2279

Texnik samaradorlik yillar bo'yicha



1-rasm. Texnik samaradorlikning o'zgarish dinamikasi (2016–2024)

Texnik samaradorlik (TS) ko'rsatkichlari tadqiqot davrida turizm biznesining rivojlanish dinamikasini aks ettiradi. 2016–2019-yillarda samaradorlik maksimal chegara darajasiga yaqin bo'lgan, 2019-yilda esa maksimal (1.00) darajaga yetgan. 2020–2021-yillarda TS keskin pasaygan (2020-yilda 0.25 va 2021-yilda 0.22), bu esa COVID-19 pandemiyasining xalqaro turizmga bo'lgan jiddiy ta'sirini ko'rsatadi. 2022-yilda tiklanish boshlangan (TS = 0.74) va 2023-yilda tezlashgan (≈ 1.00), bu infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar va cheklolarning yumshatilishi bilan qo'llab-quvvatlangan kuchli tiklanishni anglatadi. 2024-yildagi biroz pasayish (TS ≈ 0.80) esa sohadagi beqarorlikning davom etayotganini, ehtimol tashqi bozor bosimlari yoki bizneslarning tashqi talabga to'liq moslashmaganligi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil orqali turizm sohasining rivojlanishini barqarorlashtirish uchun mehmonxona quvvatlarini va turistik xizmat ko'rsatuvchilar sonini ko'paytirishning strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Transport vositalari sonining ahamiyatsizligi kelgusida sifat ko'rsatkichlarini (aviaqatnovlarning ulanish darajasi, yo'llar holati) ham kiritish zarurligini ko'rsatadi. Samarsizlikning shovqinga nisbatan ustunligi maqsadli boshqaruv va siyosiy choralar natijasida resurslar hajmini mutanosib oshirmasdan ham ishlab chiqarishni sezilarli darajada ko'paytirish mumkinligini bildiradi. Tiklanish jarayonlari tashqi zarbalarga bardoshlilikni oshirish zaruratini ta'kidlaydi, shuningdek, manbaviy bozorlarni diversifikatsiya qilish va raqamli infratuzilmani (Wi-Fi, yo'l-yo'riq belgilarini) rivojlantirish orqali sayyohlar tajribasini yaxshilash muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2016–2024-yillar oralig'idagi yillik ma'lumotlar asosida O'zbekiston turizm sektorining ishlab chiqarish samaradorligi Kobb–Duglas tipidagi stoxastik chegara modeli (Stochastic Frontier Analysis, SFA) yordamida baholandi. Modelda yarim normal taqsimotga ega samarasizlik komponenti qabul qilinib, turizm eksporti hajmi (ming AQSh dollarida) natijaviy o'zgaruvchi sifatida olindi. Kiruvchi o'zgaruvchilar sifatida esa turizm infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari — mehmonxona xonalari soni, turizm xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar soni hamda transport vositalari parki hajmi tanlandi. Shuningdek, vaqt trendi parametrlari sifatida kiritilib, u sektor ichidagi texnologik, institutsional va tarkibiy o'zgarishlarning ta'sirini aks ettirish imkonini berdi.

Model logarifmik shaklda baholanib, o'zgaruvchilar o'rtasidagi elastiklikni to'g'ridan to'g'ri talqin qilish imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mehmonxona quvvatining elastikligi ($\beta_1 \approx 1.01$) va turizm xizmatlarini ko'rsatuvchilar sonining elastikligi ($\beta_2 \approx 1.08$) deyarli birga teng bo'lib, bu kiruvchi resurslarning turizm eksporti hajmiga to'liq proporsional ta'sirini bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, xonalar soni yoki xizmat ko'rsatuvchilar hajmi 1 foizga oshirilganda, eksport hajmi ham o'rtacha 1 foiz atrofida ortadi. Bu esa turizm infratuzilmasining yetarli rivojlanishi mamlakat eksport salohiyatini mustahkamlashdagi hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatadi. Transport koeffitsienti manfiy (-0.37) bo'lsada, statistik ahamiyatga ega emasligi tanlama hajmining kichikligi va multikolinearlik bilan izohlanadi. Bu



holat transport tizimining faqat son jihatidan emas, balki sifat jihatidan — masalan, yo'l holati, aviareyslar soni, qulaylik darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali ham baholanishi zarurligini anglatadi.

Vaqt trendining manfiy qiymati (-0.20) esa 2020–2021-yillardagi pandemiya davrida yuzaga kelgan iqtisodiy pasayishlarni va turizm oqimining keskin kamayganini ifodalaydi. Texnik samaradorlik (TS) ko'rsatkichlari ham bu tendensiyaning yaqqol aks ettirdi: 2019-yilgacha samaradorlik 1 ga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda u 0.25 gacha, 2021-yilda esa 0.22 gacha tushib ketgan.

Bu COVID-19 pandemiyasining xalqaro turizm oqimiga va xizmatlar eksportiga bo'lgan keskin ta'sirini aniq ifodalaydi. Biroq, 2022–2023-yillarda Respublika turizm sohasida sezilarli tiklanish kuzatildi: Texnik samaradorlik 2022-yilda 0.74, 2023-yilda esa deyarli 1.00 ga tenglashdi. Bu holat sohada amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari, xalqaro marketing strategiyalari va cheklovlarning bosqichma-bosqich yumshatilishi bilan izohlanadi. 2024-yilda esa samaradorlik biroz pasayib (0.80), sektorning hali ham tashqi omillarga nisbatan to'liq barqarorlashmaganligini ko'rsatdi.

Modelning dispersiya parametrlariga ko'ra, samarasizlik dispersiyasi ($\sigma_u^2 = 0.49$) tasodifiy shovqin dispersiyasidan ($\sigma_v^2 \approx 0$) ancha katta bo'lgan, bu esa sohadagi tafovutlarning aksariyati ichki samaradorlik muammolari bilan izohlanishini ko'rsatadi. $\lambda \approx 18\,994$ va $\gamma \approx 1.0$ qiymatlari shuni anglatadiki, turizm eksportidagi o'zgarishlarning deyarli barchasi samarasizlik tufayli yuzaga kelgan, tasodifiy omillar esa juda kichik rol o'ynagan. Bu natijalar boshqaruv qarorlarini yanada aniqroq yo'naltirish uchun qulay imkoniyat yaratadi: to'g'ri siyosat va boshqaruv choralarini orqali kiritilgan resurslarni mutanosib oshirmasdan ham natijalarni keskin yaxshilash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston turizm sektorining dinamik samaradorlik tahlili iqtisodiy va institutsional jihatdan muhim xulosalar beradi. Birinchidan, mehmonxona va xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmani kengaytirish mamlakatning eksport hajmini oshirishda eng muhim omil bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, transport tizimining faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan rivojlantirilishi ham zarur. Uchinchidan, samarasizlikning shovqinga(boshqa inobatga olinmagan xatoliklar) nisbatan ustunligi soha ichida boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi. Nihoyat, pandemiyadan keyingi yillarda kuzatilgan tez tiklanish turizm sohasining bardoshlilikini oshirish, manba bozorlarni diversifikatsiya qilish va raqamli infratuzilmani (Wi-Fi, onlayn bron tizimlari) rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu jihatdan, tahlil natijalari O'zbekistonning turizm siyosatini barqaror o'sish, innovatsiya va raqobatbardoshlikka yo'naltirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Debreu, G. (1983a). *Mathematical economics: Twenty papers of Gerard Debreu*. Cambridge University Press.
2. Koopmans, T. C. (1951). *Activity analysis of production and allocation*. Wiley.
3. Farrell, M. J. (1957). The measurement of productive efficiency. *Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General)*, 120(3), 253–290.
4. Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.
5. Caves, D. W., Christensen, L. R., & Diewert, W. E. (1982). The economic theory of index numbers and the measurement of input, output, and productivity. *Econometrica*, 50(6), 1393–1414.
6. Chambers, R. G., Chung, Y., & Färe, R. (1996). Benefit and distance functions. *Journal of Economic Theory*, 70(2), 407–419.
7. Kapelko, M., Oude Lansink, A., & Stefanou, S. E. (2023). Multidirectional dynamic inefficiency analysis: An extension to include corporate social responsibility. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 113–130). Springer.
8. Jradi, S., & Ruggiero, J. (2023). Stochastic MQT. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 131–142). Springer.
9. Aigner, D., Lovell, C. A. K., & Schmidt, P. (1977). Formulation and estimation of stochastic frontier production function models. *Journal of Econometrics*, 6(1), 21–37.
10. Amsler, C., Chen, Y. Y., Schmidt, P., & Wang, H. J. (2023). A hierarchical panel data model for the estimation of stochastic metafrontiers: Computational issues and an empirical application. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 183–196). Springer.
11. Parmeter, C. F., & Kumbhakar, S. C. (2023). Recent advances in the construction of nonparametric stochastic frontier models. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 165–182). Springer.
12. Stead, A. D., Wheat, P., & Greene, W. H. (2023). Robustness in stochastic frontier analysis. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 197–228). Springer.



13. Macedo, P., Madaleno, M., & Moutinho, V. (2023). Stochastic frontier analysis with maximum entropy estimation. In P. Macedo, V. Moutinho, & M. Madaleno (Eds.), *Advanced mathematical methods for economic efficiency analysis: Theory and empirical applications* (pp. 251–270). Springer.
14. Bosetti, V., Cassinelli, M., & Lanza, A. (2007). Benchmarking in tourism destinations; Keeping in mind the sustainable paradigm. In Á. Matias, P. Nijkamp, & P. Neto (Eds.), *Advances in modern tourism research: Economic perspectives* (pp. 165–179). Springer.
15. Mirzaev, K., & Janzakov, B. (2020). The determinants of international tourism (in the example of CIS countries). *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 2020.
16. Djanzakovich, M. (2022). Ogli JBK The analysis of impact of factors influencing leadership abilities. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 49(09).
17. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB*, 8(2), 23-25.
18. Safarov, B., Mirzaev, K., Janzakov, B., & Ruzibayev, O. (2022). A Study on the Impact of Distance and Income on Potential Gastrotourists' Decision-Making Process. *African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure*, 11(6), 2052-2062.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
